

# "O'zkiyosanoat" Ajda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar

// 03 October 2023 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-ajda-ekologiya-va-atrof-muhitni-muhofaza-qili-sh-bo-yicha-so-nggi-yillarda-amalga-oshirilgan-ishlar>



Tarmoq korxonalarida atmosfera havosi, suv va yer resurslarini muhofaza qilish, chiqindi bilan ishlash, o'simliklar dunyosini muhofaza qilish bo'yicha jami 144 ta chora-tadbir o'tkazildi.

2023-yil yanvar-avgust oylarida atrof muhitni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida:

Atmosfera **18884,606 tonna** tashlanmalar kamayishiga, jumladan, **1043,66 tonna** toksik tashlamalar, **6 mln m3** suv tashlanmalari kamayishiga erishildi; **13000 ming m3** artezian suvlari hamda **2,77 ming m3** ichimlik suvlari iqtisod qilindi; **718,1 gektar** yer texnik rekultivatsiya qilindi; **11 765,07 tonna** chiqindi utilitatsiyaga topshirildi; **117170 tup** ko'chat va **175 536** dona gullar ekildi; **1400 tup** daraxtga

zararkunandalarga qarshi ishlov berildi;

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari va unga tutash hududlarda **360 800 kv.metr** maydonlar tozalandi; **125,450 km** masofadagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, jumladan, yo'llar, velosiped va piyodalar yo'laklari, energetika ta'minoti obyektlari ta'mirlandi va tozalandi; **241 722 kv.metr** maydondagi transport infratuzilmasi obyektlari tozalandi; **480 850 kv.metr** maydondagi avtomobil yo'li va temiryo'l bo'ylari begona o'tlardan tozalandi va obodonlashtirildi; **34 947 kv.metr** maydondagi irrigatsiya va melioratsiya obyektlari tozalandi va tartibga keltirildi; tarmoq korxonalari hududlaridagi va unga tutash hududlaridagi **78 311 dona** daraxtlar parvarishlandi, oqlandi va ularga tegishli shakllar berildi.